

BOSHLANG'ICH SINFLARGA INGLIZ TILI DARSLARINI QIZIQARLI VA SAMARALI TASHKIL ETISH

**Archabayeva Nargiza Nasimovna - JDPI stajyor-
o'qituvchisi, Mahkamboyeva Shaxrizoda Xusan qizi -
JDPI talabasi, Mahkamboyeva Ozoda Xusan qizi -
JDPI talabasi**

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar usullarni qo'llash natijasida, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi, nutqi ravonlashishi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanishi, bilimga ishtiyoq uyg'otishi, darslarga puxta hozirlik ko'rishga intilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy, innovatsiya, boshlang'ich, o'yin, ta'limiy, ta'lim, bingo, texnologiya.

Ingliz tilini o'rganish bugungi taraqqiyotning asosiy shartlaridan biridir. Binobarin, yosh avlod o'rtasida ushbu fanga bo'lgan qiziqishni nafaqat oshirish, balki ularning bu yo'ldagi izlanishlarini rag'batlantirish ota-onalar qatori pedagoglar zimmasiga ham mas'uliyat yuklaydi. Zamonaviy boshlang'ich ta'limdagi eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-sonli Qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Qarorga ko'ra, Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengash boshchiligida ta'lim sohasining barcha yo'nalishlarida beqiyos ko'lamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi. Masalan, 2013-2014 o'quv yilidan e'tiboran umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni o'yin tarzidagi mashg'ulotlar va og'zaki nutq darslari shaklida uzluksiz o'rgatish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, ushbu sinflarga mo'ljallangan darslik hamda o'quv-metodik majmualar yaratildi. Diqqatga molik jihati, birinchi sinflar uchun yaratilgan majmualardagi o'yin-mashg'ulotlarning kichkintoylar yoshiga mutanosibliigi ta'minlanadi. Bolalar xorijiy til bilan ilk tanishishni salomlashish madaniyati, ranglar va kundalik so'zlarni dialog shaklida o'rganishdan boshladilar. Shubhasiz,

mamlakatimiz ta'lim dargohlarida xorijiy tillar xonalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'qitishning ilg'or texnik vositalari bilan jihozlash, teleradiokanallarda bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatuvchi ko'rsatuv va eshittirishlarni berib borish, boshqa mamlakatlar tarixi va madaniyati, jahon ilm-fani va texnik yangiliklariga bag'ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy va multiplikatsion filmlarni o'zbekcha subtitr yordamida muntazam namoyish etish yoshlarimizga dunyo xalqlarining o'tmishi, madaniyati, ilm-fani bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o'quvchilarga chet tillarni o'rgatishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorda ta'kidlanganidek, birinchi sinflarda o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o'rgatishni amalga oshirish, haqiqatan, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Birinchi sinf o'quvchilari rasmi yoki videoli turli ko'rishlarni juda yaxshi ko'rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, ularning nutqlarini o'stirishda o'yinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Masalan, Bu nima?, Bu kim?, Kim ko'p so'z biladi?" kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin jarayonida bolalarning so'zlarni eslab qolishi, to'g'ri talaffuz etishiga qarab rag'batlantirib borish zarur. Bolalarning so'z boyliklarini ortib borishiga qarab boshqa turdagi o'yinlar, turli xil musobaqalarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga dastlab "Meva nomlari", "Kasblar", "Uy jihozlari" kabi mavzulardagi mashqlarni o'yinlar yordamida bajartirish mumkin. So'ngra ular kompyuterdagi rang-barang tasvirlarga uyg'un holatda ko'rsatilsa, o'quvchilarning nutqi rivojlanib, atrof-muhitga munosabat doirasi kengayadi. Yangi mavzuni namoyish etish bosqichida ekranda so'zlar va uni aks ettiruvchi rasmlar paydo bo'ladi. O'quvchilar so'zlarni tinglab, ularni talaffuz etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mavzuni kompyuter yordamida taqdim etishda ta'limni individuallashtirish printsipiga e'tibor berish lozim. Ayrim o'quvchilar so'zning grafik, ayrimlari esa tovushli obrazni qabul qilishda qiyinchilikka uchraydilar.

Shunday ekan biz ustoz-muallimlar interfaol, innovatsion va qiziqarli usullardan foydalanib, darsimizni mazmunli o'tishimiz lozim. Bilamizki, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini olib kirish, ulardan maqsadli va to'g'ri foydalanish, shu orqali o'quvchida chet tillarga bo'lgan

qiziqishni oshirish, o'qitish samaradorligini yaxshilash eng muhim masaladir. Bugungi kunda ta'lim sohasida turli xil usullar mavjud. Ulardan dars davomida yangi mavzuni yoritishda keng va yanada qiziqishlarini oshirish maqsadida foydalanishimiz kerak.

Ma'lumki, so'nggi yillarda yurtimizda xalq ta'limi tizimida chet tillarini o'qitida yangi davr boshlandi, talablar, metodika o'zgardi. Bunda ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol, innovatsion usullardan foydalanish talab etilmoqda. Maktablarda ingliz tili fani 1-sinflardan boshlab o'tilayotgani buning tasdig'idir. Bilimga chanqoq bolajonlarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni ingliz tilining boy olamiga olib kirish o'qituvchilardan katta mehnat talab etadi. Albatta, bu borada darslarni turli interfaol o'yinlar asosida tashkil etish ularda ishtiyoqini yanada oshiradi, passiv o'quvchilarni faollashtiradi, sinfda o'quvchilar o'rtasida raqobat qatori o'zaro jamoadoshlik muhitini yuzaga keltiradi.

Keling, ingliz tili darsini mazmunli o'tkazish uchun didaktik o'yinlardan bir nechta misollarni ko'rib chiqamiz.

- ✓ **PICTIONARY?** ko'pchilik ingliz tilini o'rganuvchilar biladigan rasm chizish o'yini. Bu o'yin uchun oddiy doska yoki oq magnit doskadan foydalanamiz. Sinfni ikki guruhga bo'lib olamiz va har bir jamoa uchun doskaning bir tomoniga jadval chizamiz va jamoalarninig to'plagan ballarini shu yerga yozib boramiz, guruhlar o'zlari uchun nom tanlaydilar. So'ng har bir guruhdan bitta o'quvchi doskaga chiqib, teskari o'girilgan so'zlardan bittasini tanlaydi va uni doskaga chizib ko'rsatadi, qolganlar uni topadi. So'zni birinchi topgan jamoaga ball beriladi. **OBJECTS?** — bu qiziqarli o'yin orqali o'quvchilarning xotirasi va so'z boyligini tekshiramiz. So'z boyligimizni qanchalik oshirsak, ingliz tilida so'zlashuv mahoratimiz shuncha yaxshilanib boraveradi. O'yinning shartlari: doska va sinfxonada joylashgan 15 buyumdan foydalanamiz. Buyumlarning hammasini stol ustiga qo'yib, barcha o'quvchini chaqirib, stol ustidagi buyumlarni ko'zdan kechirishlarini aytamiz, so'ng hamma buyumlarning ustini biror narsa bilan berkitamiz. So'ng o'quvchilardan eslab qolgan 15 ta buyumni qog'ozga yoki daftarlariga ingliz tiliga yozishlarini so'raymiz. 2-3 daqiqadan so'ng o'qituvchi buyumlar nomlarini doskaga yozadi va o'quvchilar o'zlari yozgan buyumlar nomlarini tekshirib oladi. Eng ko'p to'g'ri yozgan o'quvchi g'olib sanaladi.
- ✓ **BACK TO BACK?** — 6y o'yin o'quvchi xotirasini charxlaydi va eshitish qobiliyatini o'stiradi. Stolga rang-barang rasmlarni chap tomoni bilan qo'yib chiqamiz, ikki o'quvchini doskaga chiqaramiz va ularning birovidan

rasmlarni tanlab olishini so‘raymiz, ikkinchi o‘quvchiga ko‘rsatmasdan ular ikkita bir-biriga teskari stulga o‘tiradilar. Rasmni ushlab turgan bola topishmoq usulda unda nima tasvirlanganini aytadi va ikkinchi o‘quvchi eshitgan so‘zlarni qog‘ozga tushiradi. Eshitganlarini yaqqol va aniq tushirsa o‘quvchi g‘olib bo‘ladi. Bu o‘yin yuqori sinflar uchun ham juda qiziqarli.

✓ **BINGO?** — bu o‘yinni o‘ynash uchun biroz tayyorgarlik ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Ammo u juda qiziqarli. 4x4 shaklda bingo qog‘ozlarini tayyorlang va har bir katagiga so‘zlar yozing hamda o‘quvchilarga tarqating. So‘zlar takrorlanmasligi va siz ularni o‘qib berganingizda o‘quvchilar borlarini belgilashlari kerak. Sahifadagi barcha so‘zlarni birinchi bo‘lib belgilagan o‘quvchi g‘olib sanaladi.

Ushbu o‘yinlarni darsingizda qo‘llab ko‘ring va erishgan natijalaringiz hamda tajribangizni hamkasblaringiz bilan o‘rtoqlashing!

Darhaqiqat, sezgi a'zolar orqali til o'rganish boshqa usullarga qaraganda foydali va samarali hisoblanadi . Masalan, o'quvchi birgina olmani tatib ko'rish jarayonida uning rangi, ta'mi, hajmi, hidi qanday ekanligini biladi va uning inglizcha nomini ham aytadi. Natijada esa, o'qituvchi bolalardan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, bolalar darrov meva yegan paytini eslaydi. Demak, bunday usullardan foydalanish o'quvchining ma'lumotlarni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rga tishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi , ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimi ham o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shahsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukamma lroq ishlab chiqish bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"// 2020 .

3. Bekmuratova U.B . " Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" // Toshkent 2012.
4. Iriskulov A.T va boshqalar Kids' English pupil's book 2sinf –Toshkent —O'zbekiston;2014
5. Passov Ye.I. Kommunikativniy metod obucheniya inoyazichnomu govoreniyu. M.: Prosveteniye,1991
6. Xoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. T., - 2003